

**BADIIY MATNLARDA QO‘LLANILGAN MAQOL VA MATALLARNING
POETIK MA‘NO IFODALASHDAGI O‘RNI
(Muhammad Yusuf dostonlari misolida)**

Gulxumor Djamalxodjayeva

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Muhammad Yusuf dostonlaridagi maqol va matallarning qo‘llanilishi, ularning poetik maqsadni yuzaga chiqarishdagi o‘rni haqida so‘z boradi. Shuningdek, Muhammad Yusuf dostonlari misolida ayrim maqol va matallarning lingvopoetik xususiyatlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: emotsional-ekspressivlik, maqol, grammatik, leksik, doston.

Abstract. This article will talk about the use of Proverbs and sayings in the epics of Muhammad Yusuf, their role in bringing the poetic goal to the surface. Also, on the example of the epics of Muhammad Yusuf, the linguopoetic properties of certain proverbs and sayings are highlighted.

Keywords: emotional-expressive, proverbial, grammatical, lexical, epic.

Maqol hamda matallar o‘zbek tilining milliy madaniyat oynasi, uni saqlovchi xazinasini desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xalq hayoti va qarashlarini ifodalashi bilan qadri bo‘lgan maqollar millatimiz tafakkuri durdonasi, nutqimizni boyituvchi vositalardan biridir. Maqollar o‘z ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida qimmatlidir.

Ijodkorlar qadimdan o‘z asarlarida badiiy ta’sirchanlik, ifodalilikni oshirish maqsadida maqollardan foydalangan. XI asr muallifi Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk” asarida shunday yozadi: “Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so‘zlar, saj‘lar, maqollar... bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelgan ... hikmatli so‘zlaridan, maqollaridan keltirdim”¹.

Barcha zamon so‘z san’atkorlarining diqqat markazida bo‘lgan maqollarning asar badiiyligini oshirish, obraz mohiyatini ochib berishda ahamiyati katta. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy va boshqa ijodkorlarning

¹ Тўхлиев Б. Ўзбек адабиёти. – Тошкент: Ўқитувчи, 2000. – Б. 63.

asarlarida mohirona qo'llanilgan xalq maqol va matallarining asar mazmunini boyitishdagi o'rni beqiyos ekanligini ko'rish mumkin.

O'zbek tilshunosligida maqol va matallarning sintaktik qurilishi, ularning morfologik va sintaktik xususiyatlari tadqiq etilgan. Maqollarda gap va so'z birikmalarining asosiy ko'rinishlari, shuningdek, ularning ma'naviy-uslubiy jihatlari ham o'rganilgan. Xalq maqol va matallarining lug'aviy xususiyatlari adabiy til va dialektlarning leksik doirasida ko'rsatilgan, Bular barchasi xalq madaniyatini, hayot tarzini va fikr yuritish uslubini aks ettiradi. Tilshunosligimizda maqollarni tadqiq etishning yangi yo'nalishlari paydo bo'lgan. Yozuvchi va shoirlarning asarlaridagi maqollarning ma'naviy va uslubiy xususiyatlariga alohida e'tibor berilib, bu orqali adabiy tildagi maqollar va ularning ijodiy uslublardagi o'rni o'rganilmoqda. Bu borada A.Rustamov, H.Sulaymon, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, H.Berdiyurov, R.Rasulov, S.Asqarov, A.Jo'raxonov, M.To'ychiev, M.Hakimov²larning ishlarini keltirish mumkin.

O'zbek adabiyoti vakillarining asarlari xalq og'zaki ijodi namunalaridan, shu jumladan, maqollardan ayri holda maydonga kelmaydi. Rus tanqidchisi V.G.Belinskiy maqollarni "Tildagi xalq fizionomiyasi" deb baholagan edi³. Maqollardan ijodiy tarzda o'rinli foydalanish asar g'oyasini chuqurroq aks ettirishga ko'maklashadi. Shuning uchun maqollarni, ularning badiiy asardagi o'rnini o'rganish, ilmiy, badiiy hamda lisoniy nuqtayi nazardan tadqiq etish borasida o'zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida ko'p ishlar qilingan⁴.

Bizningcha, ijodkorlarning folklor unsurlaridan foydalanishi ularni badiiy tafakkur orqali sintez qilish, asar mohiyatini boyitadi. Folklor janrlari madaniy meros sifatida, ijodkor uchun estetik manba bo'lib, uning zamonaviylik va an'anani birlashtirish qobiliyatini ko'rsatadi. Agar yozuvchi va shoir folklordan mohirona foydalana bilmasa, bunday asar folklor soyasida qoladi. Zero, yozma adabiyot vakili kollektiv ijoddan ancha yuqori bo'lgan zamonaviy, badiiy-estetik talablarga javob bera oladigan adabiyot yaratishi darkor. Bu borada professor B.Sarimsoqov shunday fikrni ilgari suradi: "Qadimgi bobolarimiz og'zaki ijodidagi obrazlarda inson ruhining qorong'u go'shalari, dilidagi murakkab kechinmalari va tuyg'ularning barchasi

² Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. Тошкент: Фан, 1970; Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987; Ш.Шоабдурахмонов, Ш.Шораҳмедов. Ҳикматнома. – Тошкент, 1990; Ҳ.Бердиёров Н., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремнологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984; Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. 1974, 4-сон. – Б. 52-55; Тўйчиев М. «Шинелли йиллар» романида халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши. – Самарқанд. 1971. – Б. 84-87; Ҳақимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 176.

³ Ҳақимов М. Ўзбек ёзувчилари асарларида мақол, метал ва афоризмлар. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 1965.

⁴ Зарипов Ҳ.Т. Ўзбек фольклори (Пед. Ин-тлар учун хрестоматия) – Тошкент, 1939; Исмоилов И.А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент. 1961; Саломов Ғ. Рус тилидан ўзбекчага мақол, метал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. – Тошкент. 1961; Ҳақимов М. Ўзбек ёзувчилари асарларида мақол, метал ва афоризмлар. Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 1965. Самадов Қ. Мақолларимиз моҳиятига доир // Ўзбекистон маданияти. – Тошкент, 1965, 5 июнь; Ҳақимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971.

N.G.Chernishevskiy iborasi bilan aytganda, qalb dialektikasi, realistik adabiyotdagidek emas. Chunki, xalq og‘zaki badiiy ijodida tasvir va ifoda vositalari yozma adabiyotdagidek chuqur ochilmagan. Bundan tashqari xalq og‘zaki badiiy ijodida tasvir ham badiiy ifoda usullari, tamoyillari muayyan darajada qoliplik xususiyatiga ega”⁵. Shuningdek, olim xalq og‘zaki ijodiyotining realistik adabiyot uchun “bebaho mezon”ligini ham alohida ta’kidlab o‘tgan. “Biroq bu holat badiiy obrazni tashkil etuvchi voqelik hamda kishilar xatti-harakatidagi, dili va ongidagi mohiyatini aks ettirish yoki ifodalash kabi estetik qonuniyatlardan folklor mahrum, degan xulosaga kelishga imkon bermaydi. Aksincha, asrlar qa’ridan bizga nur sochib, ongimiz va ruhimizni parvozga undab turgan ajdodlarning badiiy obraz, binobarin, badiiylik haqidagi tasavvurlarini, ular yaratgan badiiy obrazlar mohiyati, vazifasi, me’yori, shakli va estetik darajasini belgilashda biz bebaho mezon sifatida olib qaraymiz”⁶.

Ma’lumki, yozma adabiyotda maqol va iboralar xalq og‘zaki ijodining muhim unsurlari bo‘lib, matnni boyitadi va fikrlarni aniq ifodalaydi. N.Mallayev o‘z tadqiqotida xalq maqollari, hikmatli so‘zlariga alohida to‘xtalib, jumladan, Yusuf Xos Hojib dostonini tahlil etish jarayonida shunday xulosaga keladi: “Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”da juda ko‘p xalq maqollari va hikmatli so‘zlarni ishlatadi... U maqol va hikmatli so‘zlarni ba’zan aynan va ba’zan she’riy misralarning poetik talabiga qarab o‘zgartirib qo‘llaydi. Maqol va hikmatli so‘zlar dostonning g‘oyaviy mazmunini boyitadi, badiiy qimmatini oshiradi”⁷.

O‘zbek yozuvchilarining ijodida maqol va aforizmlarning qo‘llanishi haqida M.Hakimov shunday ta’kidlaydi: “Yozuvchi umumxalq tili asosida badiiy obraz va xarakterlar yaratadi. Obraz va xarakterlarning tipik va individual bo‘lishi ularning turli-tuman tasviriy vositalar, shu jumladan, jonli tilning qaymog‘i bo‘lgan xalq aforizmlari – maqol, matal, hikmatli so‘zlar, iboralar badiiy-tasviriy qurol bo‘lib xizmat qiladi”⁸. Darhaqiqat, xalq og‘zaki ijodidagi maqol va hikmatli so‘zlar yozuvchi va shoir uchun badiiy asar tilini boyitishda asosiy qurol vazifasini o‘tashi tayindir.

O‘zbek adabiyotida qo‘llanish doirasi jihatidan xalq og‘zaki ijodining maqol, matal, ibora kabi janrlari eng faoldir. Ijodkorlar poetik talab va badiiy maqsadga ko‘ra ayrim hollarda maqollarning leksik tarkibini o‘zgartirib qo‘llaydi. Bu sinonimik va leksik variantlar istifodasi she’rda qofiya va poetik ta’sirchanlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Muhammad Yusuf xalq maqol va hikmatli so‘zlariga ijodiy yondashib, o‘zlashtirma, gohida yangicha maqol variantlarini yaratdi.

Shoirning she’rlarida kutilmagan tarzda poetik talabga muvofiq o‘zgartirilgan xalq maqollari, matal va iboralarini uchratamiz. Uning dostonlarida qo‘llangan

⁵ Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 10.

⁶ Саримсоқов Б.. Кўрсатилган марба. – Б. 11.

⁷ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи (Қадим замонлардан – XVII асрларгача). I китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – Б. 132.

⁸ Ҳақимов М. Ёзувчи ва халқ тили. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 22.

maqollarni quyidagi yo'nalishlarda o'rganish mumkin: 1. Maqollardagi ayrim so'zlarning grammatik jihatdan o'zgartirib qo'llanishi; 2. Maqollarda ayrim leksik o'zgarishlar (sinonim, kontekstual antonim yoki boshqa so'zlar tanlash hisobiga) yuz berishi; 3. Maqollarda so'z tartibining o'zgarishi; 4. O'zgarishlarsiz qo'llanilgan maqollar.

Doston misralaridagi maqollarning ayrim so'zlari grammatik jihatdan o'zgartirib qo'llanishi. Muhammad Yusufning "Temirlar nidosi" dostonida:

"O'zingdan topgan baloga,

Qayga bording davoga⁹." ("Temirlar nidosi").

Ushbu maqol "Ma'nolar maxzani" kitobida "O'zimdanda chiqqan baloga, qayga boray davoga?" tarzida beriladi¹⁰. Maqolning shaxsi umumlashgan gapga aylantirilishi *chiqqan* sifatdoshi o'rniga *topgan* so'zining qo'llanilishi ham maqol ma'nosiga biroz o'zgartirish kiritadi: ya'ni "*balo o'zimdanda chiqdi*" emas, balki "*baloni o'zing topding*" ma'nosi she'r ruhiyatini yorqinroq ifodalaydi. Dostonda temirdan qay maqsadda foydalanayotgani tasvirlangani hamda ushbu gaplar temir nomidan insonga qarata aytilayotgani e'tiborga olinsa, so'z almashish mantiqan to'g'ri ekanligi ayon bo'ladi:

Qora quzg'un

Qush bo'lib,

Dengizlarda suzarman,

Po'lat bo'lib,

Zirh bo'lib,

Osmonlarda kezarman.

O'zingdan topgan baloga,

Qayga bording davoga¹¹.

Aslida maqol ota-ona o'z noqobil farzandidan shikoyat qilganligini anglatsa-da, muallif bu jumalalarda inson o'zi yaratgan qurollaridan o'zi aziyat chekkanligini ifodalaydi. Asarda insoniyatning urush davrida shu darajada ilojsiz, dilgir va aziyat chekkanligi, uning dard-iztiroblari ichini kemirayotganlik holati ushbu jumlada mujassam bo'lgan.

Dostonlarda qo'llanilgan maqollarda ayrim leksik o'zgarishlar yuz berishi. Muhammad Yusuf "Osmonning oxiri" dostonida bir emas, naqd ikki maqolni uddaburonlik bilan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin: "Mehnatning tagi rohat" hamda "Rohatning onasi – mehnat" maqollarining matn ekspressivligini oshirish maqsadida biroz o'zgartirib qo'llaydi: *Mashaqqatning oxiri rohat. Rohatning oxiri yana mashaqqat¹².* ("Osmonning oxiri") Muhammad Yusuf maqol matnida ishlatilgan "mehnat" so'zi o'rniga "mashaqqat" so'zini qo'llar ekan, o'ziga xos uslubini yaratadi

⁹ Ko'rsatilgan asar. – B. 197.

¹⁰ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – Б. 397.

¹¹ Ko'rsatilgan asar. – B. 197.

¹² Ko'rsatilgan asar. – B. 170.

va o'quvchi doim eshitib yurgan maqolning yangicha shaklini berish orqali uning e'tiborini jalb qilishga va ta'sir kuchini oshirishga erishadi. "Mashaqqat" so'zi *mehnat* ma'nosini berish bilan birga doston muallifining ichki kechinmalarini ifodalab, real tasvirga, emotsionallikka va matn ekspressivligini oshirishga xizmat qilgan. Keyingi "*Rohatning onasi – mehnat*" maqolini o'rniga esa "*Rohatning oxiri yana mashaqqat*" misralarida "onasi" so'zi "oxiri" leksemasiga almashtiriladi. Natijada, fikr ifodasida obrazlilik va bo'yoqdorlik kuchayganini ko'ramiz. Aslida bu ikki maqol bir mazmun mohiyatga ega bo'lsa-da, Muhammad Yusuf talqinida ularda qo'shimcha ekspressivlik paydo qilinib, o'ziga xos poetik ma'no ifodasiga xizmat qilgan. Bu dunyo sinov dunyosi ekanligi, unda hamma narsa mehnat, mashaqqatga bog'liqligi, kim mehnat qilsa rohatda bo'lishligi, kim dangasalikka o'rganib, muntazam ravishda rohatga mayl qilsa, rohatdan mahrum bo'lishi yoki unga aslo erisha olmasligini anglatadigan ushbu maqollardan Muhammad Yusuf o'ziga xos mahorat bilan foydalanadi.

Shoir ba'zan ayrim so'zlarning sinonimik va leksik variantlarini qo'llaydi.

O'zin dardi o'ziga ayon,

Bir men desam, sen ham notavon.

Toma-toma to'lgan Zarafshon,

*Sen ham ko'zi namga o'xshaysan*¹³. ("Ko'hna quduq")

misrlarida "*Toma-toma ko'l bo'lar, tiyinlardan so'm bo'lar*", "*Toma-toma ko'l bo'lar, oqa-oqa sel bo'lar*", "*Toma-toma ko'l bo'lar, tommay qolsa cho'l bo'lar*" kabi maqollarning poetik shakli yaratilgan, deyish mumkin. Maqolning mazmunidan "kishi tirikchilik uchun zarur bo'lgan narsalar va mablag'larni oz-ozdan bo'lsa ham jamg'ara borishi, tejab-tergab sarflashi lozim" degan ma'no anglashiladi¹⁴. Muhammad Yusuf "*ko'l bo'lar*" birikmasini "*to'lgan Zarafshon*" birikmasiga almashtirib, maqolga o'zgacha poetik maqsad yuklaydi. Ammo keltirilgan parchada, "toma-toma ko'l bo'lar" maqolidan kelib chiqadigan umumiy xulosa yig'lash (*sen ham ko'zi namga o'xshaysan*) holati bilan izohlanadi. Bu o'rinda "toma-toma to'lgan" birikmasini ham *o'pkasi to'lmoq* iborasining o'zgartirilgan shakli deyish mumkin. Ma'lumki, "o'pkasi to'lmoq" iborasi "yig'lamoq" leksemasi bilan *ko'z yoshi, suv, namlilik* semalari orqali bog'lanadi. Zarafshon gidronimi ham "to'lmoq" (*Toma-toma to'lgan Zarafshon*) leksemasi orqali "Toma-toma ko'l bo'lar" maqoli bilan ham, "o'pkasi to'lmoq" iborasi bilan ham semantik jihatdan bog'lanib, shoirning ifoda mahoratini ko'rsatadi.

Shuni aytish joizki, adib ijodiga xos qofiyalanish, ohangdorlik, xalqchillik, soddalik, mazmun va shakl ixchamligi, ma'no qo'llashning kengayib yoki torayib borishi ham kuzatiladi. "Dunyoniki – miri kam ikki" maqolini "Ko'hna quduq" dostonida quyidagicha shaklini uchratamiz:

Aslida-ku, sendan-da hur kam

¹³ Ko'rsatilgan asar. – B. 180.

¹⁴ Ўзбек халқ мақоллари (Тузувчилар: Т. Мирзаев, А. Мусоқулов, Б. Саримсоқов) – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 395.

Sendan aziz, sendayin pir kam.

Bu dunyo u dunyo bir kam,

*Sen ham biri kamga o'xshaysan*¹⁵. (“Ko'hna quduq”)

“Ma'nolar maxzani” kitobida: “Dunyoniki – miri kam ikki” (miri – besh tiyin) maqoli quyidagicha izohlanadi: Biror kamchiligidan, **yetishmovchiligidan**, o'jizligidan o'kinib, kuyinib, xafa bo'lib yurgan odamga tasalli berganda shu maqolni aytadilar¹⁶. Doston misralarida maqolning so'zlari biroz o'zgartirilgan bo'lsa-da, mazmun-mohiyati saqlangan.

Dostonda qo'llanilgan maqollarda so'z tartibining o'zgarishi. Muhammad Yusuf dostonlarida ayrim maqollardagi so'zlar inversiyaga uchragan holatda beriladi. Jumladan, *Ekkaningni o'rasan. Ekmaganingni esa, ko'rasan, xolos*¹⁷. (“Osmonning oxiri”) Bu maqol aslida “Har kim ekkanini o'rar”, “Nima eksang shuni o'rasan” kabi shakllarda ishlatiladi. 10 dan ortiq sinonimik variantga ega¹⁸. Muhammad Yusuf “Osmonning oxiri” dostonida ushbu maqoldan ayrim so'zlarni tushirib qoldirish orqali foydalangan. Maqol matni qisqa, ixcham ma'noda, aniq bayon etishni taqozo etgani bois, ijodkorga qo'l keladi.

Dostonlarda o'zgarishsiz qo'llanilgan maqollar. Muhammad Yusuf dostonlarida o'zgarishsiz qo'llangan ko'plab xalq maqollarini ham uchratish mumkin. Ular turli vaziyatlarni yuzaga chiqarishda, obraz yaratishda, matn ta'sirchanligini oshirishda o'ziga xos uslubiy vazifalarni bajargan. “Osmonning oxiri” dostonida *“Ko'rpangga qarab oyoq uzat, dedim o'zimga o'zim bir kun*¹⁹.” misrasida keltirilgan maqol “o'z holingga qarab ish tut” mazmunini ifodalab, qahramonning tabiatini ochishga xizmat qilgan. “Ko'rpangga qarab oyoq uzat” maqoli “Ma'nolar maxzanida” shunday keltiriladi: “O'z holingga, mablag'ingga, imkoniyatga qarab ish ko'r”, degan ma'noda qo'llaniladi²⁰.

“Odam dunyoga bir marta keladi” maqolining turli toifadagi odamlar tomonidan turlicha talqin qilinishi dostonida san'atkorona sharhlangan:

“Odam dunyoga bir marta keladi. Shu kalima so'z bilan qancha savob ishlar qilish mumkin. Shu bir kalima so'z pinjida qancha gunohga botish mumkin.

Bu gapni agar qariqiz aytsa yig'laging keladi.

Satanglar aytsa, ensasi qotadi odamning. Qo'y o'sha sevgi-pevgingni, ajrashinglar, deydi boyvuchcha ona qiziga. Odam dunyoga bir marta keladi!

Seni bir haftada onasi o'pmaganiga uylantirib qo'yaman-e, deydi takabbur ota o'g'liga: Ajrash. Odam dunyoga bir marta keladi!

¹⁵ Ko'rsatilgan asar. – B. 184.

¹⁶ Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – Б. 82.

¹⁷ Ko'rsatilgan asar. – B. 175.

¹⁸ Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Кўрсатилган манба. – Б. 17.

¹⁹ Ko'rsatilgan asar. – B. 169.

²⁰ Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Кўрсатилган манба. – Б. 200.

...*Odam dunyoga bir marta keladi, do 'stim*²¹.” (“Osmonning oxiri”)

Shoir inson atalmish mavjudotning naqadar xilma-xilligi, fikrlar, qarashlar, saviyalarning naqadar turlicha ekanligini birgina maqol vositasida bera olgan. Maqol so'ngida qo'yilgan tinish belgilari uning vaziyatga muvofiq ravishda, qay ohangda aytilganini ifoda etadi.

Doston jozibasini orttirishda ahamiyatli bo'lgan yana bir maqol “O'qigan – olim, o'qimagan – o'ziga zolim” maqolidir. Shoir uni tarkibiy jihatdan butunlay o'zgartirib yuborgan bo'lsa-da, misralarda maqol mazmuni bo'y ko'rsatib turadi:

O'qimay o'l, unmay o'l, o'g'lim,

O'qib olim bo'lmay o'l, o'g'lim,

Olti tilni bilmay o'l, o'g'lim!...

Endi mening holim ne kechar? (“Qora quyosh”)

Bu o'rinda qahramon ruhiyatidagi kuchli dard va alamni ifodalash uchun oddiy xalq maqolidan mohirona foydalanilgan. 1937-mudhish yillardagi farzand dog'ida kuygan, yurak-bag'ri ezilgan ona nolasi birgina maqol mazmuniga singdirilgan. Onaning tilidan aytilgan *O'qib olim bo'lmay o'l, o'g'lim*, jumlasini, bir qarashda qarg'ishga o'xshab ko'rinsa-da, uning zamirida ming afsus, nadomat, dard, armon, onalik mehr-muhabbati yotadi. Xuddi shu xususiyatlar asar xalqchilligini oshirgan.

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan maqollar Muhammad Yusuf ijodida, xususan dostonlarida o'ziga xos yangicha talqinini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To'xliiev B. O'zbek adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2000. – B. 63.
2. Rahmatullaev Sh. Nutqimiz ko'rki. Toshkent: Fan, 1970;
3. Rustamov A. So'z xususida so'z. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987;
4. H Berdiyurov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984;
5. Jo'raxonov A. Muqimiyning xalq maqollaridan foydalanish mahorati // O'zbek tili va adabiyoti. 1974, 4-son. – B. 52-55;
6. To'ychiev M. «Shinelli yillar» romanida xalq maqollari va iboralarining ishlatilishi. – Samarqand. 1971. – B. 84-87;
7. Hakimov M. Yozuvchi va xalq tili. – Toshkent: Fan, 1971. – B. 176.
8. Hakimov M. O'zbek yozuvchilari asarlarida maqol, metal va aforizmlar. Filol. fan. nomz...diss. – Toshkent, 1965.
9. Zaripov H.T. O'zbek folklori (Ped. In-tlar uchun xrestomatiya) – Toshkent, 1939;
10. Ismoilov I.A. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. – Toshkent. 1961;

²¹ Ko'rsatilgan asar. – B. 171-173.

11. Salomov G'. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, metal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir. – Toshkent. 1961;
12. Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir // O'zbekiston madaniyati. – Toshkent, 1965, 5 iyun;
13. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Fan, 2004. – B. 10.
14. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi (Qadim zamonlardan – XVII asrlargacha). I kitob. – Toshkent: O'qituvchi, 1965. – B. 132.
15. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. – B. 397.
16. O'zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzaev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov) – Toshkent: Sharq, 2005. – B. 395.
17. Muhammad Yusuf Xalq bo'l elim // O'zbekiston – Toshkent, 2018 – 137-204-b.